

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. R.N.To'rayev
26 "iyul" 2024 yil

Ro'yxatga olindi
№ - BD 61010400 -
26 "iyun" 2024 yil

“SPORT SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI”

fanidan

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 1000000-Xizmatlar
Ta'lif sohasi: 1010000-Xizmat ko'rsatish sohasi
Ta'lif yo'nalishlari: 61010400-Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

Fan/modul kodi SSTB 103	O'quv yili 2024-2025	Semestr 10	Kreditlar 4
Fan/ modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili o'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1. Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama
Sport sog'lomlashtirish turizmi	14	106	120

I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsadi - Respublikamizda sport turizmni tashkil qilish, sport-sog'lomlashtirish va kasbiy amaliy turizmni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha turizm mutaxassislariga tayyorlash, turistik resurslarni va turistik marshrutlar ishlab chiqishni bo'lgusi turizm mutaxassislariga o'rgatish hisoblanadi.

Fanning vazifasi talabalarda mazkur fan bo'yicha sport turizmining umumiy tavsifi, rekreatsiya turizmining tavsifi, mo'ljallassh sportining tavsifi, turistlarni tayyorlash asoslari, turistlarni topografik, jismoniy, psixologik, texnik-taktik tayyorgarligi, piyoda sayr turizmining xususiyatlari, suv turizmining xususiyatlari, tog' turizmining xususiyatlari, chang'i turizmining xususiyatlari, velosiped turizmining xususiyatlari kabi mavzular bo'yicha bilim va tushunchalar hosil qilishdir, xalqaro sport turizm amaliyotidagi ustuvor turistik modellarni o'rganish asosida milliy turistik mahsulot modellarni ishlab chiqish, sport turizmning muammolarini va ularning yechimlarini o'rgatish hisoblanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruba mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. SPORT SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMINING UMUMIY TAVSIFI. REKREATSIYA TURIZMINING TAVSIFI.

Sport turizmini rivojlanish tarixi. Sport turizmining asosiy mazmuni. Sport turizmi-sportning bir turi sifatida tafsilanishi. Sport turizmni tashkillashtirish tabiatni va turlari. Turli masofadagi turizm va sport musobaqalarining talablari va xususiyatlari. Rekreatsiya belgilari. Rekreatsiya turizmining turlari, shakllari va tizimlashtiruvchi omillari. Rekreatsiya turizmi bilan shug'ullanishning uslubiy va tashkiliy qoidalar.

2- MAVZU. TURISTLARNI TAYYORLASHI ASOSLARI TURISTLARNI TOPOGRAFIK TAYYORGARLIGI.

Turistlarni tayyorlashning asosiy vazifalari. Turistlarni tayyorlashning asosiy tamoyillari. Turistik tayyorgarlikning turlari va ularning mazmuni. Reja, karta. Masshtab va karta bo'yicha o'lehash. Relef va uning asosiy shakllari to'g'risida tushuncha, relef va mahalliy obektlarning kartada tasvirlanishi. Aymutlar, magnit og'ishlari, direkt burchaklar meridianlar yaqinlashishi.

3-MAVZU. SUV TURIZMINING XUSUSIYATLARI. SPORT TURISTIK SAYYOHATLARINI VA SPORT-TIJORAT TURLARINI TASHKILLASHTIRISH.

Suv turizmi turizmining tavsifi. Suv turistik marshrutlaridagi asosiy to'siqlar. Suv sporti sayohatlari uchun asbob-uskunalar. Suv turizmining taktikasi va texnikasi. Suv qatnovlarida xavfsizlik xususiyatlari. Tog' turizmining tavsifi. Tog' sayyoqlik marshrutlari to'siqlari. Tog' sayohati uchun uskunalar. Alpinizm texnikasi. Tog' sayohati taktikasi. Tog' turizmidagi xavfsizlik xususiyatlari.

Sport safarini tashkil etish sxemasi. Shaxsiy va guruh uskunalar (umumiyo qoidalar). Turistik tibbiy yordam to'plami. Birinchi yordam. Ovgatlanish. Sport va tijorat sayohatlarini tashkillashtirish. Sport va tijorat turlarining narxini hisoblash. Xavfsizlik tizimining asosiy qoidalar. Tabiyi sharoitda inson xavfsizligini ta'minlash. Inson xavfsizligini baholashda ehtimoliy yondashuv.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (list of seminar topics)

Amaliy mashg'ulotlar multimedya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullari yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsija etiladi:

1-mavzu. Sport sog'lomlashtirish turizmining umumiy tavsifi. Rekreatsiya turizmining tavsifi.

2-mavzu. Turistlarni tayyorlash asoslari. Turistlarni topografik tayyorgarligi. Turistlarning jismoniy tayyorgarligi.

3-mavzu. Suv turizmining xususiyatlari. Tog' turizmining xususiyatlari. Chang'i turizmining xususiyatlari.

4-mavzu. Sport turistik sayohatlarini va sport-tijorat turlarini tashkillashtirish. Sport turizmida xavfsizlikni tashkillashtirish asoslari.

"Sport sog'lomlashtirish turizmi" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot olib borish va bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlarga yaqin aloqa o'rnatiladi: jonli suhbat olib boriladi, o'zaro fikr almashtish va turicha qarashlarni ifoda etish jarayonida fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini amalga oshiradi. Bunda zamonaqiy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari qo'l keladi. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

VI. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Ushbu fandan kurs ishi rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'limga va mustaqil ishlari (Independent study and independent work).

Bakalavr mustaqil ta'limga tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- nazariy material bo'yicha misol va masalalar yechish,
- elektoron platformada mustaqil ta'limga nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- masofaviy ta'limga.

Bakalavrga mustaqil ta'limga mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytildi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'rildi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Mustaqil ta'limga uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta'limga uchun tavsiya etiladigan topshiriglar:

- 1-mavzu. Sport turizmining umumiy tavisi.
- 2-mavzu. Rekreatsiya turizmining tavisi.
- 3-mavzu. Mo'ljallash sportining tavisi.
- 4-mavzu. Turistlarni tayyorlash asoslari.
- 5-mavzu. Turistlarni topografik tayyorgarligi.
- 6-mavzu. Turistlarning jismoniy tayyorgarligi.
- 7-mavzu. Turistlarning psixologik tayyorgarligi.
- 8-mavzu. Turistlarning texnik-taktik tayyorgarligi.
- 9-mavzu. Piyoda sayr turizmining xususiyatlari.
- 10-mavzu. Suv turizmining xususiyatlari.
- 11-mavzu. Tog' turizmining xususiyatlari.
- 12-mavzu. Chang'i turizmining xususiyatlari.
- 13-mavzu. Velosiped turizmining xususiyatlari.
- 14-mavzu. Sport turistik sayyohatlarni va sport-tijorat turlarni tashkillashtirish.
- 15-mavzu. Sport turizmida xavfsizlikni tashkillashtirish asoslari.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limga turli xil shakkleri mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keysstadir)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishlari tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini

o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlari, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlari bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'limga.

"Sport sog'lomlashtirish turizmi" fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakkarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ishlari mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim.

VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) (Learning Outcomes / Professional Competences)

"Sport sog'lomlashtirish turizmi" fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq etib, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Shuningdek, atroficha bilim olish maqsadida, talabalarga musqatil ishlari mustaqil ta'limga beriladi.

"Sport sog'lomlashtirish turizmi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun asosiy ilmiy-nazariy bilimlarni qo'llay oladi;
- tizimli va qiyosiy tahliliga ega bo'ladi;
- tadqiqot qobiliyatiga ega bo'ladi;
- mustaqil ishlashga qodir bo'ladi;
- tashabbus va ijodkorlikni, shu jumladan nostonart vaziyatlarda qabul qilishni o'rganadi;
- texnik qurilmalardan foydalanish, axborotni boshqarish va kompyuter bilan ishlash bilan bog'liq ko'nikmalarga ega bo'ladi
- og'zaki va yozma muloqot qobiliyatiga ega bo'ladi;
- o'rganish, hayot davomida o'z malakalarini oshirishib boradi;

Kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- ma'ruzalar uchun prezentatsiyalar, materiallar tayyorlash;
- zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish;
- sport-ommaviy, dam olish va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish rejalashirish;
- turizm sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishini rejalashirish;
- ilmiy ishlarni malakali tayyorlash

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihibar;
- jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar

VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki, test,yozma ishni topshirish.

IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari (list of recommended literature)

Asosiy adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.—Xalq so'zi . 2019 yil. 21 iyul.

2.Tuxliev I.S., Qudratov G.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalshtirish. Darslik. Toshkent - «IQTISOD - MOLIYA» 2010 - 263 b.

3.Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2018 y.

4.Raximov Z.O., Ibadullayev N.E., Xaitboyev R. Tropereyting. Darslik. — T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. 396 b.

5.Raximov Z.O., Norkulova D.Z. Mehmonxona xo'jaligida rejalshtirish. Darslik. - Samarqand: "TURON-NASHR", 2021, 204 bet.

6.Lundberg D., Krishnamurthy M. — Tourism V.S. "Organizatsiya mejdunarodnogo turizma. Economics. New York: John Wiley Sons Inc. 1999.

7.Теория и методика спортивного туризма : учебник / под ред. В. А. Таймазова и Ю. Н. Федотова. – М. : Советский спорт, 2014. – 424 с.

8. Гулидин П.К.. Туризм спортивный: курс лекций/ П.К.Гулидин.- Витебск: БГУ имени П.М.Машерова ,2017.-116 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldag'i "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-238-soni Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldag'i "2022 — 2026-yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-27-soni Farmoni.

3.Raximov Z.O., Xaitboyev R., Ibadullayev N.E., Safarov B.Sh. Tropereyting. O'quv qo'llanma. - T.: "Fan va texnologiya", 2018. - 300 b.

4.Raximov Z.O. Turizmda tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamlSI, 2019, 232 bet.

5.Raximov Z.O., Norkulova D.Z., Kulnazarova Z.B., Daminov M.I., Karimov A.A. Turizmda rasmiyatçilik. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamlSI, 2020, 188 bet.

6.Raximov Z.O., Norkulova D.Z, Turistik destinatsiyalarni loyihalashtirish. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamlSI, 2020, 188 bet.

7.Мартынов А.И, Мартынов И.А. Безопасность и надежность в альпинизме. -М.: СпортАкадемПресс, 2003


8.Федотов Ю.Н. Организация спортивно-оздоровительного туризма:учебник. – СПб.: СПбГУФК им. П.Ф. Лесгафта, 2007.


Axborot manbalari:


1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy basazi.
2. www.ziyonet.uz- ta'lim portalı
3. www.world-tourism.ors-Butun jahon turizm tashkiloti
4. www.wttc.org - Sayohat va turizm bo'yicha Butun jahon Kengashi
5. www.uzbektourizm.uz
6. www.tour.uz
7. wikipedia.com
8. unwto.com- World Tourism Organization.
9. scholar.google.com– ilmiy maqolalar qidiruv sayti.
10. <http://www.mail.tdu.uz>- TDU elektron kutubxonasi
11. <http://www.el.tfi.uz> — TMI elektron kutubxonasi
12. <http://www.sies.uz> - SamlSI elektron kutubxonasi

O'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil 26-iyundagi I hisobli yug'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sullar:

O.Abdug'aniyev  Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekami, i.f.d. professor

G.M.Abdulxayeva  Termiz davlat universiteti, «Turizm va mehmonxona xo'jaligi» kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent.

Tuzuvchi: D.S.Xamzayeva  Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi katta o'ctuvchisi.

Taqrizchilar:

S.J. Gadoyev Terdu, Moliya kafedrasi mudiri, i.f.d. (DSc), dotsent

Z.N. To'rayev TISU, O'quv metodik boshqarma boshlig'i, PhD